

FRANSUZ TILIDAGI MAQOLLARNING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Shohsanam Ahror qizi
SamDCHTI magistranti

ANNOTATSIYA

Maqola “Fransuz tilidagi maqollarda frazeologizmlarning kelib chiqish tarixi va tarjima tahlili” to‘g‘risida bo‘lib, bu mavzu tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e‘tibori frazeologizmlarni o‘rganishga qaratilgan. Frazeologizm- ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, manoviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasidir. Frazeologizm so‘z kabi lug‘aviy birlik hisoblanib, tilda tayyor holda mavjud bo‘lganligi uchun nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi. Biz ushbu maqolada frazeologizmlarning kelib chiqish tarixi, shakllanishi hamda ularning asosiy tarjima xususiyatlari tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar : frazeologiya, frazeologik birliklar, ibora, frazeologizmlar tarixi.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена теме «История возникновения и переводческий анализ фразеологизмов во французских пословицах», данная тема посвящена изучению фразеологии как отрасли языкознания. Фразеологизм - это словосочетание, состоящее из двух и более слов, которые духовно связаны между собой. Фразеологизм считается лексической единицей наподобие слова и является не речевым явлением, а языком, поскольку существует в языке в готовом виде, является событием. В данной статье мы рассматриваем историю происхождения фразеологизмов, их формирование, анализ их основных переводческих особенностей.

Ключевые слова: фразеология, фразеологизмы, словосочетание, история фразеологизмов.

ANNOTATION

The article is about "The history of the origin and translation analysis of phraseologisms in French proverbs", this topic focuses on the study of phraseology as a branch of linguistics. Phraseologism is a word combination consisting of two or more words that are spiritually interrelated. Phraseologism is considered a lexical unit like a word and is not a speech phenomenon, but a language because it exists ready-made in

the language. is an event. In this article, we consider the history of the origin of phraseologisms, their formation, and the analysis of their main translation features.

Key words: phraseology, phraseological units, phrase, history of phraseologisms.

KIRISH. Ushbu maqolada fransuzcha maqollardagi frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixi xususidagi ma'noviy mutanosiblik holati yoritilgan bo'lib, etimologiya hamda frazeologiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishning muhimligi, hamda bu tilda keng qo'llaniladigan qiziqarli iboralar haqida so'z yuritilgan. Ya'ni biz bilamizki fransuzcha frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixi xususidagi ishlar bir necha arslardan buyon tilshunoslar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Etimologik izlanishlar, avvalo fransuzcha frazeologik birliklarni nazariy jihatdan o'rganishni taqazo qilyapti. Shuningdek fransuz tilshunoslari aynan shu masala yuzasidan ko'plab izlanishlar olib bormoqdalar va bu tadqiqotlar o'z samarasini berib kelmoqda.

ASOSIY QISM. Fransuzcha maqollardagi frazeologik birliklarni etimologik nuqtai nazardan tahlil qilish natijasida shunday holatlarni ko'rishimiz mumkinki, iboralar ijtimoiy kelib chiqishi yoki tarixiy voqealarga borib taqaladi bularni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

“ Il faut tourner sept fois sa langue dans sa bouche avant de parler ” -ushbu maqol o'zbek tilida *avval o'ylab keyin so'yla* maqoliga to'g'ri keladi. Ya'ni Ushbu maqolning paydo bo'lgan sanasi aniq ma'lum emas, lekin u faqat Fransiya akademiyasining lug'ati 1832 yil nashridan keltirilgan. Ya'ni, biz Injilda Sulaymonga tegishli bo'lgan quyidagi so'zlarni ko'rishimiz mumkin: "Dono odam gapirishdan oldin tilini og'ziga etti marta aylantiradi". Shuningdek, o'ylamay gapirish boshni kundaga qo'yish bilan barobar degan manoda keladiki, o'ylamasdan gapirib kimgadir ozor berib qiynalgandan ko'ra o'ylab gapirish haqidagi pand nasihatli maqol hisoblanadi.

il faut laver son linge sale en famille - bu maqol o'zbek tilida *oilaviy sir tashqariga chiqmaydi* maqoliga to'g'ri kelib, bu maqolning telib chiqish tarixi qadim tarixga borib taqaladi, ya'ni qadimda qirol saroylari yoki oddiy aholining turar joylarida kir yuviladigan xona bo'lmaganligi sababli ayollar chekka joylardagi daryo yoki buloqlarga borib kir yuvishga majbur bo'lishgan. Kir yuvishxonada, mahalladagi boshqa ayollar bilan birga yuvilib, g'iybat ko'paygan. Ijtimoiy roli nihoyatda muhim bo'lgan bu joy mintaqaga kelganda mahalliy g'iybatlardan va hatto dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lish uchun juda mos kelgan. U, shuningdek, hozir bo'lgan ayollarga oilaviy nizolar haqida gapirishga va shu tariqa ularni juda keng ommaga

e'lon qilishga yaxshigina imoniyat yaratib bergan va ushbu maqol ya'ni oilaviy sir ko'chaga chiqmaydi maqoli vujudga kelgan.

il fait faire vie qui dure- ushbu maqol o'zbek tilida *dunyoni suv bossa o'rdakka ne g'am* maqoliga to'g'ri kelib bu maqolning tarixi ko'pincha o'zining har qanday injiqligiga ergashadigan va haddan tashqari beparvo bo'lgan odam uzoq umr ko'rishi haqida aytiladi.

Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo'lib qoldi. Ya'ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo'lmagani kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o'zaro aloqasi, o'zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. "Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'lmaslik, g'ofillik, milliy mahdudlikka olib keladi". Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog'lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko'pri deb qaraladi. Demak, tarjima:

- xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik o'rnatilishi;
- ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvchi;
- madaniyat, san'at va adabiyotlarning bir-biriga ta'siri;
- tillarning boyishida muhim ro'l o'ynaydi.

Tarjima nazariyasining fan sifatida shakllanishi

Tarjimashunoslik nisbatan yangi fan bo'lib, XX asrning o'rtalarida paydo bo'ldi. Dastlab 40-yillarda tarjimashunoslikda lisoniy yo'nalish paydo bo'lgan. "Bu yo'nalishning mohiyati shundan iborat ediki, tarjimaga, asosan, hamma hollarda va barcha janrlarda lisoniy faoliyatdan iborat deb qaralgan. Tarjima muammosi predmetini bunday talqin qilganda, umumiy tarjima nazariyasini tilshunoslikka mansub deb qarashni, tarjima muammolarini tadqiq qilishga yondashish esa lisoniy asnodan bo'lishini taqozo etadi. Mazkur yo'nalishni tanqid qilish asnosida adabiyotshunoslik yo'nalishi atalmish yangi bir qarash paydo bo'ldi. Bu yo'nalish namoyandalarining da'vosicha, badiiy va nobadiiy tarjima o'rtasida jiddiy tafovut bor: badiiy tarjima – adabiyot sohasidagi ijodiy faoliyat, nobadiiy tarjima esa til sohasidagi noijodiy faoliyatdan iborat. Muammoni bu tarzda talqin etish o'z-o'zidan shunga olib keladiki, bunda tarjimashunoslik go'yo ikki "tarjima nazariyasi"dan iborat bo'lib qoladi: biri – badiiy tarjima nazariyasi bo'lib, u adabiyotshunoslik sohasi hisoblanmog'i darkor, ikkinchisi esa nobadiiy tarjima nazariyasi bo'lib, tilshunoslik sohasiga mansub bo'lmog'i lozim".

Adekvat tarjima – lotinchada tenglashtirilgan muvofiq manolarini berib, har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxaga mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima hisoblanadi.

Erkin tarjima-bu asl nusxaning g‘oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o‘zgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipidir. Bunda tarjimalarda muallif uslubi emas, balki tarjimon uslubi ustun turadi.

Ijodiy tarjima esa asar g‘oyasi va badiiy o‘ziga xosligini o‘zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo‘lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash demakdir. Ijodiy tarjima so‘zma-so‘z tarjimaga ham, o‘zgartiruvchi erkin tarjimaga ham zid tushunchadir. Ijodiy tarjima orqali kitobxonga manzur bo‘ladigan so‘z san‘ati namunasi hosil qilinadi. Shuning uchun badiiy adekvat tarjima ijodiy tarjima hisoblanib, bu asl nusxaga sodiq qolishni” taqozo etadi.

Frzeologizmlar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari frazeologizmlar – maqol, matal va iboralar hisoblanadi. Turmushda sinalgan, ma‘lum ezgu, tugal umumiy ma‘no anglatuvchi, ixcham, jarangdor shaklga kirib qolgan xalq hikmatiga maqol deyiladi. Masalan: Bir yigitga yetmish hunar oz. Aql yoshda emas, boshda. Matal esa narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan nutqiy tarkibdir. Masalan: Burgaga achchiq qilib, ko‘rpani kuydirmoq. “Matal aytilmoqchi bo‘lgan fikrni biror vosita orqali ifodalovchi ko‘chma ma‘noli sodda jumla bo‘lib, unda xulosa bo‘lmaydi, balki uning o‘zi biron xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi.

“Idioma – ma‘nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma‘nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma‘no beruvchi ixcham ibora hisoblanadi. Masalan: tomdan tarasha tushganday, og‘zingga qarab gapir”

Maqollarni etimologik jihatdan o‘rganish ularni boshqa tillarga tarjima qilish yoki talqin qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Etimologik xususiyatlar har bir millat va xalqning o‘ziga xosligini ifodalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Rey A., Chantreau S, Dictionnaires des expressions et locutions. Paris, Le Robert, 1989.
2. Larousse, Dictionnaire des locutions françaises, Paris, 1957.

3. Французско-русский фразеологический словарь / В.Г.Гак и др. /Под ред. Я.И.Рескера. – М.: ГИИНС, 1963. –1112 с.

4. Ашуров, Ш. Лексические особенности английских эквивалентов узбекских пословиц, передающих национальные ценности. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 1, 1 (янв. 2023), 1–10. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss1-pp1-10>

5. Spence, N.C.W. Composé nominal, locution et syntagme libre // *La Linguistique*. – Paris, 2006. - 2. – P. 4-24.

6. Маматов А.Э., Очерки по французской фразеологической стилистике, Ташкент, 1989.

7. Suvonova N. Matn tahlili. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –Samarqand, SamDCHTI nashri, 2010. –В. 13. / - 47 б. https://arm.samdchti.uz/library/book_view/117

8. Сувонова Н. 2023. Коммуникативно-прагматические особенности императивных паремий (на материале французского языка). *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 1, 1 (янв. 2023), 20–28. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss1-pp20-28>